Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
<b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
<b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
<b>Икромовна Ханифа Одилловна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari .....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati .....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....	1232
<b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



# YANGI O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIIY- IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI



**Raxmonova Aziza Tolibovna**

Samarqand iqtisodiyot va serves instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularning tadbirkorlik faolligini oshirish, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkor ayollarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini yanada oshirish. Inson kapitali, inson huquqlari, gender tengligi va barqaror rivojlanish bugungi kunda dolzarb bo'lgan o'zaro bog'liq masalalar zanjiridir. Gender tengligi o'z-o'zidan muhim bo'lib, u ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va inson salohiyatining mehnat unumdorligiga kuchli ta'sirida ham namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada ayollar mehnat bozorini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish siyosatini davom ettirish bilan bog'liq masalalar tahlil qilinib, ushbu tahlillar asosida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** inson kapitali, mehnat bozori, gender tenglik, iqtisodiyot, jamiyat, professional ta'lim, inson huquqlari, hayot sifati.

**Abstract:** Improving the socio-economic status of women in our country, increasing their entrepreneurial activity, providing vocational training and employment, further increasing the role of women entrepreneurs in the development of the economy. Human capital, human rights, gender equality and sustainable development are a chain of interrelated issues that are relevant today. Gender equality is important in itself, it is manifested in the role of women in the development of society and the strong influence of human potential on labor productivity. This article analyzes the issues related to the improvement of the women's labor market, the continuation of the policy of increasing the socio-economic activity of women, and based on these analyzes, conclusions and proposals are formulated.

**Key words:** human capital, labor market, gender equality, economy, society, professional education, human rights, quality of life.

**Аннотация:** Улучшение социально-экономического положения женщин в нашей стране, повышение их предпринимательской активности, обеспечение профессиональной подготовки и трудоустройства, дальнейшее повышение роли женщин-предпринимателей в развитии экономики. Человеческий капитал, права человека, гендерное равенство и устойчивое развитие – это цепочка взаимосвязанных вопросов, актуальных сегодня. Гендерное равенство важно само по себе, оно проявляется в роли женщин в развитии общества и сильном влиянии человеческого потенциала на производительность труда. В данной статье анализируются вопросы, связанные с совершенствованием женского рынка труда, продолжением политики повышения социально-экономической активности женщин, и на основе этого анализа формулируются выводы и предложения.

**Ключевые слова:** человеческий капитал, рынок труда, гендерное равенство, экономика, общество, профессиональное образование, права человека, качество жизни.

## KIRISH

Donishmand xalqimiz hamisha ayollarni e'zozlab yashagan, xotin-qizlarga yuksak ehtirom ko'rsatib yashash el-yurtimizga xos azaliy qadriyatga aylangan. Buni muqaddas Qur'oni karimning eng katta suralaridan biri – "Niso", ya'ni "Ayollar" deb atalishi ham tasdiqlaydi. Alloh taolo ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo'lishga da'vat etadi.

Muqaddas hadisi shariflarda ham xotin-qizlarga doimo yaxshilik qilish buyurilgan. Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur mirzo kabi ulug' ajdodlarimiz, ma'rifatparvar jadidlarimiz ham oilaning tinch, mustahkam va farovon bo'lishida, farzandlar tarbiyasida xotin-qizlarning o'rni va ta'siri beqiyos ekanini alohida ta'kidlaganlar.

Bugungi kunda xotin-qizlar jamiyatimizda olib borilayotgan o'zgarish va yangilanishlar jarayonida, boshqaruv tizimida, tadbirkorlik, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at sohalarida, mahallalarda fidokorona mehnat qilib kelmoqdalar (Mirziyoyev, 2022).





So'ngi yillar davomida erishilgan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari tufayli O'zbekiston gender tengsizligini kamaytirish yo'lida ma'lum yutuqlarga erishdi. Shu bilan birga, bir qator demografik va tarkibiy muammolar mavjud bo'lib, ulardan biri xotin-qizlarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish samaradorligining etarli darajada yuqori emasligidir.

Sohada olib borilayotgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsatib, Jahon bankining Ayollar, biznes va qonun indeksida O'zbekiston 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo'yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog'onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o'rinni egalladi.

O'zbekiston BMT Nizomining maqsad va prinsiplariga hamda xalqaro huquqning boshqa umume'tirof etilgan normalariga sodiq ekanliklarini doimo ko'rsatib kelgan.

Gender tenglik—ham rivojlanish maqsadi, ham iqtisodiy siyosatga to'g'ri yondashishdir, chunki rivojlanish har bir inson, ayollar va erkaklar uchun teng ravishda erkinliklarni kengaytirish jarayoni sifatida qaraladi.

Islohotlarning barcha bosqichlarida O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat keng qamrovli masalalarni o'z ichiga oladi. Aholi daromadlarini tizimli ravishda oshirib borish, bandlik va mehnat munosabatlarini shakllantirish, aholining ayrim toifalarini, shu jumladan tadbirkor va fermer xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash borasida qo'shimcha kafolatlar berildi.

Xususan, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari mikrokredit bazasi mijozlarining 30 foizidan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Tijorat banklari mablag'lari hisobidan 172 mingdan ortiq xotin-qizlarga 4,9 trillion so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Buning natijasida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan xotin-qizlar soni bir yilda 45 ming nafarga ko'paydi.

2019-yildan boshlab aholining ish bilan ta'minlanishi va yangi ish o'rinlari yaratilishi davlat buyurtmasi asosida amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yildi. O'zini o'zi band qilgan fuqarolarga vaqtincha mehnat guvohnomalarini berish va ularning ish stajini qayd etish tartibi joriy etildi. Natijada norasmiy sektorda band bo'lgan xotin-qizlarning ulushi 27 foizga yetdi.

Respublikaning chekka hududlarini rivojlantirish, qishloqlarni obodonlashtirish, qishloqlarda yashovchi xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allikni qisqartirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Qishloq xo'jaligining turli sohalarida 1,5 milliondan ortiq xotin-qizlar mehnat qiladi.

Tadbirkorlik subyektlarining 20 foiziga, shu jumladan fermer xo'jaliklarining 7,3 foiziga ayollar rahbarlik qiladi. Gender tenglikni rag'batlantirish va unga erishish uchun ommaviy axborot vositalari faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ijtimoiy va siyosiy faol xotin-qizlar imidjini aks ettiruvchi, xotin-qizlar va erkaklar uchun yaratilgan imkoniyatlarni yorituvchi radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlar soni ko'paydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida mamlakatimizda O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari qabul qilingan. Mazkur vazifalar doirasida gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda boshqa sohalarida zarur choralar belgilab olingan.

2003-yilda professor Pan Jinxi (2003) birinchi marta gender inson kapitali kontsepsiyasini taklif qildi. Shundan so'ng ayollarning inson kapitali bo'yicha tadqiqotlar o'rganilishi boshlandi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida modernizatsiyaning yuqori sur'atlari taraqqiyot va rivojlanishga turtki bo'lsa-da, ular ayollarni ham ortda qoldirishi mumkin, chunki ular tez tarkibiy o'zgarishlarga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va ta'limga ega emaslar. Ayni paytda ayollar mamlakat aholisining qariyb 50 foizini tashkil etsada, ularning rasmiy mehnat bozoridagi ishtiroki cheklanganligicha qolmoqda.

Inson kapitalini rivojlantirish mashaqqatli ish hisoblanadi. Shu sababli buni bir kunda amalga oshirib bo'lmaydi. Bu borada tayyor yechimlar yo'q. Har bir mamlakat o'z yo'nalishini belgilab olishi kerak. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar va ayollar uchun manzilli ishlash mehanizmi joriy qilinmoqda. Hukumatning jiddiy sa'y-harakatlari tufayli erishilgan gender tafovutlari qisqarganiga qaramay, ayrim sohalarini rivojlantirishda gender tengsizlik muammolari saqlanib qolgan. Bir qator tarmoqlar o'rtacha daromad darajasida jinslar bo'yicha sezilarli farqlar bilan ajralib turadi, mehnat bozorida ayollar sonini ko'paytirishda muammolar mavjud.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta'kidlash lozimki, xotin-qizlar tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha kuplab iqtisodchi olimlar shug'ullanib kelgan. Ular qatoriga F. Kotler, M. Porter, D. Evans, I. Ansoff, M. Berman, M. Golubkov, P. Samuelson, D. Marshall kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy hususiyatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiyotda tadbirkorlik nazariyasini rivojlantirishga katta xissa qo'shgan olimlarni



ham e'tirof etish lozim. Bularga M. Muxammedov, M. Pardayev, R. Ibragimov, Y. Abdullayev, A. Saliyev, M. Sharifxo'jayev, B. Xodiyev, D. Raximova, R. Boltaboyev, Sh. D. Ergashxodjayeva Sh. A. Musayeva va boshqalarni kiritish mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ayollar, biznes va qonun 2023 ayollarning qonuniy huquqlarining hozirgi holatini batafsil tavsiflaydi. Ushbu tadqiqot ayolning ish hayoti bilan tuzilgan ma'lumotlar to'plami va indeksini taqdim etadi. Hukumat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati ushbu asosdan ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishdagi to'siqlarni aniqlash va olib tashlash, ishchi kuchi va tadbirkorlikda ishtirok etishni rag'batlantirish uchun foydalanishi mumkin.

Jahon banki guruhining kreditlash va texnik yordam operatsiyalari loyihalarni ishlab chiqish uchun tahliliy asos yaratish uchun ayollar, biznes va qonunchilik to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanadi. Atlantika Kengashi kabi boshqa muassasalar; teng choralar 2030-yil dasturi; Jorjtaun ayollar, tinchlik va xavfsizlik instituti; meros fondi; Millennium Challenges korporatsiyasi; va BMT ayollari undan ayollarni jamiyatdagi o'rnini yuksaltirish uchun foydalanadilar. Butun jahon miqyosida va O'zbekistonda ham ayollarning iqtisodiy faolligi erkaklarnikiga nisbatan past ko'rsatkichga ega. 2021-yil yakunlariga ko'ra, bu ko'rsatkich ayollar orasida 41,3%ni, erkaklar orasida esa 56,9%ni tashkil etgan<sup>1</sup>.

Statistik ma'lumotlaraga ko'ra, 2021-yil boshiga mehnatga layoqatli yoshdagilar 20 135,1 ming kishini tashkil etib, ulardan 9 629,8 ming kishi ayollarni tashkil etgan. 2021-yilda ayollar o'rtasidagi ishsizlik darajasi 13,3 foizni (taqqoslash uchun dunyo bo'yicha 6,1%) tashkil etgan. Bu erkaklar o'rtasidagi ishsizlik darajasidan ikki baravar yuqori. Ishsiz ayollarning asosiy qismini o'rta maxsus (65,8 foiz) va o'rta (28,5 foiz) ma'lumotga ega, shuningdek, qisman oliy ma'lumotli xotin-qizlar (3,4%) tashkil etgan.

1-jadval: 2016-2021-yillarda iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha jami bandlardagi ayollarning ulushi, %<sup>2</sup>

Ko'rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi	43.7	44.3	43.1	43.2	42.4	42.4
ishlab chiqaradigan sanoat	47.1	47.6	45.2	47.0	46.2	45.8
qurilish	5.8	5.8	5.8	6.2	6.3	6.3
ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	51.5	51.8	50.3	51.5	49.7	49.0
Tashish va saqlash	7.2	7.2	7.2	7.2	7.2	7.1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	52.4	52.8	51.7	52.1	51.7	51.0
axborot va aloqa	32.7	32.7	34.4	32.3	35.2	35.0
moliyaviy va sug'urta faoliyati	37.3	38.2	38.7	34.8	37.4	37.6
davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	29.1	29.4	28.4	26.8	27.8	27.5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	76.5	76.6	76.5	76.8	76.3	77.3
Ta'lim	75.6	75.6	75.7	75.7	74.9	73.8

1-jadvalda mamlakatimizda iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha jami bandlardagi ayollarning ulushi keltirilgan. Ushbu jadvalda ko'rinib turibdiki, iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha bandlardagi ayollarning eng kam ulushi qurilish, tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turida kuzatilib, 2021-yil ko'rsatkichlari bo'yicha qurilish faoliyati 6,3% va tashish faoliyati 7,1% ni tashkil etmoqda. Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich ta'lim faoliyatida 73,8%, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 77,3% faoliyatida kuzatilgan.

2022-yil mehnatga layoqatli aholining mehnat bozorida ishtirok etish darajasi 60% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich erkaklar o'rtasida 71,9% ni, ayollar orasida esa 46,6% ni tashkil qilgan. Umuman olganda, ayollarning iqtisodiy faolligi erkaklarning iqtisodiy faoligidan 1,5% kam.

1 Jahon bankining rasmiy sayti. Elektron manba: <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/b60c615b09e7-46e4-84c1-bd5f4ab88903/content>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. Elektron manba: [www.gender.stat.uz](http://www.gender.stat.uz)



YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi tadqiqotchilarning atigi 30 foizini ayollar tashkil etadi. Ko'proq ayollar universitetlarga kirgan sari, ko'pchilik ilmiy martaba uchun zarur bo'lgan oliy ma'lumotdan voz kechmoqda. Qolaversa, qizlar dush keladigan stereotiplardan tortib, oilaga g'amxo'rlik qilish mas'uliyati va kasb tanlashda ayollar dush kelishi mumkin bo'lgan noto'g'ri qarashlar mavjud. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarining jinsi bo'yicha ulushida ham oldingi yillarda ma'lum tafovutlar mavjud bo'lgan (2-jadval).

**2-jadval: 2016-2022 yillar Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarining jinsi bo'yicha ulushi, o'quv yili boshiga %<sup>3</sup>**

Ko'rsatkichlar	2016-2017	2017-2018	2018-2019	2019-2020	2020-2021	2021-2022
<b>Jami</b>	<b>100.0</b>	<b>100.0</b>	<b>100.0</b>	<b>100.0</b>	<b>100.0</b>	<b>100.0</b>
Ayollar	38.2	40.0	44.3	45.9	45.5	45.6
Erkaklar	61.8	60.0	55.7	54.1	54.5	54.4
Bakalavriyat	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0
Ayollar	38.3	40.1	44.4	46.1	45.6	45.6
Erkaklar	61.7	59.9	55.6	53.9	54.4	45.4
Magistratura	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0
Ayollar	36.8	38.0	40.5	41.6	42.7	47.0
Erkaklar	63.2	62.0	59.5	58.4	57.3	53.0

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin, 2016-2017-yillar oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishida ayollarning 38,3%i tahsil olgan. erkaklarda esa bu ko'rsatkich 61,7% ni tashkil qilib, ayollarga nisbatan 33,4%ga ko'proq bo'lganini ko'rishimiz mumkin. 2021-2022-o'quv yillari boshlariga kelib, bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi ayollar soni 45,6% ni tashkil qilib, 2016-2017-o'quv yillariga nisbatan 7,3%ga oshgan. 2021-2022-yillar oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi erkaklar con 54,4% ni tashkil qilib, oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi ayollarga nisbatan 8,8%ga ko'p bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

2016-2017-yillar oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura ta'lim yo'nalishida ayollarning 36,8%i tahsil olgan. erkaklarda esa bu ko'rsatkich 63,2%ni tashkil qilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotlarida 2018-2019-yillar gender tengsizlik bilan bog'liq tafovutlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

O'zbekiston Respublikasi hukumati xotin-qizlarning mehnat bozorida ishtirokini kengaytirish niyatida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan siyosiy chora-tadbirlar bilan bir qatorda, kasanachilik dasturlari, shuningdek, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, jamoat ishlari dasturlari orqali yangi ish o'rinlari yaratish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda ayol qadri yuksaltirish borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, albatta, bu borada huquqiy asoslar yaratilganligi va muntazam takomillashtirib borilayotganligi bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xotin-qizlarning faol ishtiroki kelajakda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, butun O'zbekiston aholisi va ayollari farovonligini oshirish uchun milliy salohiyatni oshirishni ta'minlaydi. Xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiyotidagi samarali ishtiroki va iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishi o'rtasidagi bog'liqlik butun dunyoga ma'lum.

Respublikamizda ayollarning mehnat bozorida faoliyatini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni ajratish mumkin:

- Respublikamizda ayollarning iqtisodiy faollik darajasida so'nggi yillarda asta-sekin o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda;
- O'zbekistonda ayollarning asosiy sohalar bo'yicha taqsimlanishi dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich atrofida shakllangan bo'lib, jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi sohasida 26,9%, sanoatda 17,4% va xizmat ko'rsatish sohasida 58,7% ni tashkil etmoqda;
- ayollar va erkaklarning kasb tanlashda katta farqlar mavjud. Ayollar aksariyat hollarda ijtimoiy gumanitar yo'nalishlarni, sog'liqni saqlash, pedagogika va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabilarni afzal ko'rishadi.
- ish bilan bandlarning eng katta ulushi ayollarga to'g'ri keladigan iqtisodiy faoliyat sohalarida eng past darajadagi oylik ish haqlariga mos keladi.



So'nggi yillarda respublikamizda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarning ahamiyatini e'tirof etgan holda, istiqbolda quyidagi ishlarni amalga oshirish taklif etiladi:

- ayollarni IT sohasi, moliya va sug'urta sohasida bandlik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rib, munosib ish o'rinlarini yaratish;
- ayollarning aksariyat qismi bang bo'lgan sohalar, yani ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida oylik ish haqi miqdorlarini muttasil ravishda oshirib borish;
- ayollarning, hususan qishloq joylardagi xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish;
- bola parvarishlash ta'tilida bo'lgan ayollarni ijtimoiy himoya qilish va moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida, ishlamaydigan onalarga 2 yoshgacha bo'lgan bolani parvarishlash uchug oylik nafaqalarni berish tizimini tiklash;
- ayollarning 3 yoshgacha farzandni parvarishlash ta'tilidan keyin mehnat bozorida moslashishini osonlashtirish, ta'lim va oilaviy majburiyatlarni uyg'unlashtirish uchun shartsharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq.

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shuni unutmasligimiz lozim, har bir barkamol kuchli erkakning yutuqlari ortida bir nozik ayolning mehnati va mashaqqati yotadi. Ayollar ijtimoiy moddiy boyliklar, inson resurslarini yaratuvchisidir. Shuning uchun, ayollarni ta'lim olishi, ta'lim imtiyozlarini ko'paytirish, ilm-fan yo'nali-shida tadqiqotlar olib borishi va umumiy qilib aytganda jamiyatda o'zini yuqori o'rnini ta'minlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib, erkaklar va ayollar o'rtasidagi teng bandlikni ta'minlash lozim.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. (2022) Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, –416 bet.
2. Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 22.07.2022 yildagi PQ-329-son "Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi 22.07.2022 yildagi PQ-329-son.
4. Hakim, C. (2004) Key Issues in Women's Work: Female Diversity and the Polarization of Women's Employment. London: Glass House Press.
5. Nair, K., & Boserup, E. (1971). Woman's Role in Economic Development. American Journal of Agricultural Economics, 53(3), 536. doi:10.2307/1238241
6. Nam, S.(1991) Determinants of female labor force participation: A study of Seoul, South Korea, 1970-1980. Social Forum 6, 641-659. elektron manba: <https://doi.org/10.1007/BF01114405>
7. Pan, J.X. (2003) Gender Human Capital Theory. Journal of Renmin University of China, 3.
8. Rakhmonova Aziza Tolibovna Tasks of Developing Women's Entrepreneurship Samarkand Institute of Economics and Service, PhD supporting doctoral student AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies Volume 01, Issue 03, 2023 ISSN (E): XXX-XXX.
9. Rakhmonova Aziza Tolibovna The Role Of Entrepreneurship In Improving Mechanisms For Increasing The Employment Of Women Samarkand Institute of Economics and Service PhD supporting doctoral student Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 Vol 12, Issue 02, 2023



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.